



O'UK:050/070:355/575.1

Gulnora XODJAMURATOVA,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: g.tursunbayeva@mail.ru

O'zJOKU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori D. Ro'ziqulov taqrizi asosida

FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE IN IMPLEMENTING PR COMMUNICATIONS IN THE MILITARY SPHERE

Annotation

The article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of public relations (PR) in the military sphere. Based on foreign (USA, United Kingdom, France, Turkey, Germany) and national experience, the study examines modern trends in military communication systems. In particular, using the example of the mudofaa.uz website, the article highlights the institutional development of PR in Uzbekistan, the role of patriotic promotion, open dialogue with the public, and ensuring information transparency. The research provides recommendations for integrating military PR into strategic communication, effectively using digital platforms, and applying foreign experience in shaping public opinion.

Key words: Military PR, public relations, strategic communication, information security, mudofaa.uz, foreign experience, national model, patriotic promotion.

ИНОСТРАННЫЙ И НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ РЕАЛИЗАЦИИ PR-КОММУНИКАЦИЙ В ВОЕННОЙ СФЕРЕ

Аннотация

В статье анализируются теоретические основы и практические аспекты деятельности по связям с общественностью (PR) в военной сфере. На основе зарубежного (США, Великобритания, Франция, Турция, Германия) и национального опыта исследуются современные тенденции системы военных коммуникаций. В частности, на примере сайта mudofaa.uz раскрываются институциональное развитие PR в Узбекистане, роль патриотической пропаганды, открытого диалога с общественностью и обеспечения информационной прозрачности. В исследовании представлены рекомендации по интеграции военного PR в стратегические коммуникации, эффективному использованию цифровых платформ и применению зарубежного опыта в формировании общественного мнения.

Ключевые слова: Военный PR, связи с общественностью, стратегическая коммуникация, информационная безопасность, mudofaa.uz, зарубежный опыт, национальная модель, патриотическая пропаганда.

HARBIY SOHADAGI PR KOMMUNIKATSIYALARNI AMALGA OSHIRISHNING XORIJIY VA MILLIY TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada harbiy sohadagi jamoatchilik bilan aloqalar (PR)ning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Xorijiy (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Germaniya) va milliy tajribalar asosida harbiy kommunikatsiyalar tizimining zamonaviy tendensiyalari o'rganilgan. Xususan, mudofaa.uz sayti misolida O'zbekistonda PRning institutsional rivojlanishi, vatanparvarlik targ'iboti, jamoatchilik bilan ochiq muloqot va axborot shffofligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda harbiy PRni strategik kommunikatsiyaga integratsiya qilish, raqamli platformalardan samarali foydalanish va jamoatchilik ongini shakllantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy PR, jamoatchilik bilan aloqalar, strategik kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, mudofaa.uz, xorijiy tajriba, milliy model, vatanparvarlik targ'iboti.

Kirish. Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) harbiy sohadagi kommunikatsiya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat axborot tarqatish, balki jamoatchilik ongini boshqarish, ishonch uyg'otish va milliy xavfsizlik siyosatiga jamoaviy qo'llab-quvvatlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot urushlari, raqamli kommunikatsiya va geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida harbiy PR faoliyati davlatning ichki va tashqi siyosatini samarali amalga oshirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzu doirasida xorijiy tajriba, strategik kommunikatsiya modeliga to'xtalinsa, xalqaro amaliyotda harbiy PRning eng rivojlangan shakllari AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiyada kuzatiladi. Masalan, olimlar tomonidan AQSH harbiylari faoliyatida PRning media bilan ishlash, rasmiy bayonotlar va vizual targ'ibot orqali jamoatchilikni rejali ravishda xabardor

qilish usullarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelingan: "Harbiy sohadagi PR yordamchi vosita emas, balki tinchlikda ham, urushda ham jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashini saqlash uchun amaliy zaruratdir".

Shuningdek, xorij tajribasiga ko'ra, harbiy kommunikatsiyada diplomatik va strategik ta'sirning uyg'unligi ta'kidlanadi, PR orqali tashqi jamoatchilik bilan aloqalarda samarali ta'sirga erishish mumkinligi qayd etiladi[4].

O'zbekiston tajribasiga to'xtalinsa, milliy model shakllanishi O'zbekistonda harbiy PR faoliyati 2019-yilda qabul qilingan Prezident qarori – "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-4366-son bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlari Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti faoliyati tubdan isloh qilindi va PRga doir institutsional asoslar shakllantirildi.

O'zbekiston tajribasida harbiy PRning xususiyatlaridan biri – vatanparvarlik targ'iboti, tarixiy merosga asoslangan ijtimoiy ma'rifiy tadbirlar, hamda xalq va armiya o'rtasida ishonchli insonparvarlik aloqalarini kuchaytirishga qaratilganidir. B. Alimov ta'kidlaganidek: "Milliy PRni shakllantirishda tarix, madaniyat va milliy qadriyatlarga tayanish orqali ta'sirchan kommunikatsiya platformasi yaratiladi"[10].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining rasmiy veb-sayti – mudofaa.uz – mamlakatda harbiy sohadagi jamoatchilik bilan aloqalar (Public Relations)ni amalga oshirishda muhim axborot platformasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu sayt orqali jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari mudofaa sohasidagi yangiliklar, tadbirlar va islohotlar haqida muntazam ravishda xabardor qilinadi.

mudofaa.uz saytinin jamoatchilik bilan aloqalardagi rolini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Axborot shaffofligini ta'minlash: mudofaa.uz sayti orqali Mudofaa vazirligi o'z faoliyati, harbiy mashg'ulotlar, xalqaro hamkorlik va boshqa muhim tadbirlar haqida rasmiy axborotni taqdim etadi. Bu jamoatchilikning davlat mudofaa siyosatiga nisbatan ishonchini oshiradi.

2. Harbiy sohadagi yangiliklarni tarqatish: saytda harbiy xizmatchilarning yutuqlari, armiyadagi islohotlar, yangi texnika va texnologiyalar haqidagi maqolalar e'lon qilinadi. Bu orqali jamoatchilik harbiy sohadagi rivojlanishlardan xabardor bo'ladi.

3. Jamoatchilik bilan muloqotni yo'lga qo'yish: saytdagi "Murojaatlar" bo'limi orqali fuqarolar o'z savol va takliflarini yuborishlari mumkin. Bu Mudofaa vazirligi va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi.

4. Harbiy xizmatga qiziqishni oshirish: mudofaa.uz saytida harbiy xizmat haqidagi ma'lumotlar, qabul shartlari va boshqa muhim ma'lumotlar joylashtirilgan. Bu yoshlarni harbiy xizmatga jalb etishda muhim ahamiyatga ega.

5. Milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirish: Saytda Vatan himoyachilari haqidagi maqolalar, tarixiy voqealar va milliy bayramlar haqidagi ma'lumotlar orqali fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'usini oshirishga xizmat qiladi.

mudofaa.uz sayti orqali jamoatchilik mudofaa sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lib, davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Saytning faoliyati jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish va harbiy sohadagi axborot shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Xorij tajribasi o'rganilganda, boshqa davlatlarning mudofaa.uz sayti singari nufuzli, harbiy rasmiy veb-saytlari faoliyatida yutuqli jihatlar ko'pligi o'z isbotini topdi.

AQSH tajribasida strategik kommunikatsiya markazida PR turishi kuzatildi. AQSH harbiy tizimida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati strategik kommunikatsiyaning ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi. PR faoliyati AQSH Qurolli Kuchlari uchun faqat axborot tarqatish emas, balki operativ faoliyat bilan birgalikda olib boriladigan ta'sirchan vosita hisoblanadi.

US Department of Defense (defense.gov) rasmiy saytida harbiy tadbirlar, press-revizlar, video xronologiyalar, jonli efirlar muntazam berib boriladi. PR siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

tinchlik va urush sharoitida jamoatchilik qo'llab-quvvatlashini saqlash;

axborot operatsiyalari (Information Operations) bilan uyg'unlikda ish yuritish;

media bilan tizimli hamkorlik;

Feyk axborot va propagandaga qarshi PR kontr-strategiyalari.

AQSHda harbiy PR bo'yicha alohida kadrlar tayyorlanadi va harbiy operatsiyalardan oldin kommunikatsiya rejalari tuziladi.

Buyuk Britaniyada PR va ommaviy fikr muvozanati yetakchilik qiladi. Britaniya Mudofaa vazirligi (MOD) jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatini public accountability va transparency tamoyillari asosida olib boradi. Shunga asosan gov.uk/mod saytidagi ma'lumotlar – faqat rasmiy axborot emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan maxsus materiallar (blog, Q&A, multimedia) orqali taqdim etiladi.

PRning eng samarali shakllaridan biri – "Community engagement", ya'ni keng jamoatchilik bilan bevosita aloqani kuchaytirishdan iborat. Shu bois harbiy xizmatchilar maktablarda, universitetlarda uchrashuvlar o'tkazishadi va ommaviy tadbirlarda ishtirok etishadi. PR jarayonining markazida harbiy xizmatni ijobiy targ'ib qilish, ishonch mustahkamlash va yoshlar orasida motivatsiya yaratish maqsad qilinadi.

Fransiya tajribasida diplomatik PR modelning o'ziga xos namunasini ko'rish mumkin. Fransiya Mudofaa vazirligining defense.gouv.fr sayti jamoatchilik bilan aloqalarni diplomatik munosabatlar va tashqi ta'sir nuqtayi nazaridan shakllantiradi. PR faoliyati Fransiya tashqi siyosati bilan uzviy bog'langan.

Fransiya armiyasida PR faoliyati: tashqi jamoatchilikni shakllantirish; xalqaro armiya imijini yaxshilash; tinchlikparvar operatsiyalarda Fransiyaning nufuzini mustahkamlash maqsadida faol qo'llaniladi.

Turkiya tajribasida milliy qadriyatlarga tayangan PR yetakchilik qilishi o'z isbotini topdi.

Turkiya Milliy mudofaa vazirligi PR faoliyatini milliy tarix va qadriyatlar asosida olib boradi. msb.gov.tr sayti orqali armiya hayoti, xizmat shartlari, xalqaro uchrashuvlar va vatanparvarlikka doir videolar keng yoritiladi.

Turkiya tajribasida PR: milliy media bilan hamkorlik orqali; tarixiy voqealarni keng yoritish asosida; NATO standartlariga mos ravishda; ichki jamoatchilikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdagi strategik vazifani bajaradi.

Germaniya tajribasida shaffoflik va raqamli innovatsiyalar yetakchi ekani ma'lum bo'ldi. Germaniya Qurolli Kuchlari (Bundeswehr) PR faoliyatini demokratik nazorat va axborot shaffofligiga asoslab tashkil etgan. bmvg.de saytidagi ma'lumotlar infografika, statistika, interaktiv izohlar va tahlillar bilan boyitilgan.

Xorij tajribasini o'rgangan holda quyida xorijiy harbiy PR veb-saytlarida qo'llaniladigan asosiy formatlar va ularni O'zbekiston mudofaa sohasi tajribasiga tatbiq etish bo'yicha tahliliy tavsiyalarni keltiramiz. Zotan bu xususiyatlar jamoatchilik bilan mustahkam aloqalar o'rnatish, ishonchni kuchaytirish va axborot shaffofligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Press-revizlar va bayonotlarni rasmiy veb-saytda berib borish nuqtayi nazaridan, AQSH (defense.gov), Britaniya, Fransiya va Turkiyada yangiliklar har kuni rasmiy bayonot sifatida chiqadi. Shunga ko'ra mudofaa.uz saytida tizimli ravishda press-revizlarni joriy etish, harbiy tadbirlar, saf ko'riklari, xalqaro uchrashuvlar bo'yicha tezkor va rasmiy axborot berish foydali bo'ladi.

Infografika va vizual ma'lumotlar: Germaniya va Kanada tajribasida harbiy sohadagi ma'lumotlar infografika orqali aniq, qiziqarli va tushunarli shaklda taqdim etiladi.

O'zbekistonda ham armiya strukturasi, xizmat turlari, texnik imkoniyatlar yoki mashg'ulot jarayonlari kabi ma'lumotlarni vizual shaklda taqdim etish PR ta'sirini kuchaytiradi.

Video va audio materiallar: AQSH, Janubiy Koreya va Turkiyada PR maqsadida maxsus videolavhalar, intervyular va harbiy vloglar tayyorlanadi. Mudofaa.uz orqali ham harbiy xizmatchilar hayoti, mashg'ulotlardan lavhalar, tarixiy voqealarni yorituvchi roliklar tayyorlash yaxshi natija beradi.

Interaktiv xizmatlardan (onlayn murojaat, savol-javob) foydalanish. Britaniya va Hindiston saytlarida aholi o'zlarini qiziqtirgan harbiy xizmat masalalari bo'yicha onlayn tarzda savol berish imkoniyatiga ega. O'zbekistonda ham "Murojaat yuborish" va "Savol bering" kabi interaktiv platformalarni takomillashtirish, PR va jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlaydi.

Armiya hayotidan shaxsiy tarixlar va bloglar: Fransiya va Kanadada harbiy xizmatchilar shaxsiy taassurotlari, xizmat tajribalari bilan o'rtoqlashadi. O'zbekistonda ham harbiylarning shaxsiy maqolalari, motivatsion tarixlari saytda chop etilsa, bu nafaqat jamoatchilikda qiziqish uyg'otadi, balki yoshlarni vatanparvarlikka undaydi.

Fotogalereya va tadbirlar arxivi: Rossiya va Germaniyada har bir tadbir bo'yicha rasmiy fotogalereyalar

yaratiladi. Mudofaa.uz saytida ham harbiy paradlar, mashg'ulotlar, turli tadbirlardan fotosuratlar muntazam ravishda yangilanib tursa, sayt media markazga aylanadi.

Axborot xavfsizligi bo'yicha ma'lumotlar: AQSH va NATO saytlarida feyk axborotlar, kiber tahdidlarga qarshi kurash usullari haqida maqolalar chop etiladi. O'zbekistonda ham PR orqali fuqarolarni noto'g'ri axborotlardan saqlash, rasmiy ma'lumot manbalarini targ'ib qilish lozim.

Harbiy xizmatga yo'naltiruvchi yo'riqnomalar va savolnomalar: AQSH va Turkiyada armiyaga kirishga tayyorlanish uchun interaktiv yo'riqnomalar, testlar, chizmalar tayyorlangan. O'zbekistonda ham harbiy xizmatga kirish shartlari, tayyorgarlik jarayonlari, suhbat namuna savollari kabi materiallar sayt orqali tarqatilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xalqaro tajribaga asoslangan holda, mudofaa.uz saytini faqat axborot tarqatuvchi vosita emas, balki zamonaviy PR markazi sifatida rivojlantirish mumkin. Kontentning shakllanishi, auditoriyaga moslashuvchanligi, vizual va interaktiv bo'lishi PR samaradorligini belgilaydi. Shu yo'nalishdagi ishlarni kuchaytirish orqali O'zbekiston mudofaa tizimi jamoatchilik bilan aloqalarni xalqaro andozalar darajasiga olib chiqishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish to'g'risida PQ-4366-son qarori (2019).
2. Mudofaa vazirligi rasmiy sayti: <https://mudofaa.uz>
3. Bohannon, C. M. Military public relations: The image of armed forces in peace and war. Washington, DC: National Defense University Press. (1996).
4. Neau, J. P. Communication et défense: Stratégies d'influence. Paris: L'Harmattan. (2007).
5. Department U.S. of Defense. Official website: <https://www.defense.gov>
6. UK Ministry of Defence. Official portal: <https://www.gov.uk/mod>
7. Ministère des Armées (France). Official website: <https://www.defense.gouv.fr>
8. Milli T.C. Savunma Bakanlığı. Official website: <https://www.msb.gov.tr>
9. Bundesministerium der Verteidigung (Germany). Official website: <https://www.bmvg.de>
10. Алимов, Б. Халқаро майдонда жамоатчилик билан алоқаларни шакллантиришда аудиовизуал журналистиканинг ўрни. Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети Илмий ахборотномаси 3(2). (2021).